

JAMIYATIMIZDA YARATUVCHANLIK, ILM –MA’RIFAT VA SAXOVATNING RIVOJLANISHIDA TADBIRKORLIKNING O’RNI

Z.M.Toshtemirova¹, M.X.Raximova¹

1. University of Economics and Pedagogy, Andijon, O‘zbekiston.

Correspondence: Toshtemirova Zilola Madaminjonovna, University of Economics and Pedagogy, Andijon, Uzbekistan. **e-mail:** toshtemirova zilolaxon@gmail.com

Received: 22 May 2025; **Accepted:** 05 June 2025; **Published:** 16 June 2025.

Abstract. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdir. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda tadbirkorlik qobiliyati iqtisodiy resurs hisoblanib, inson omilining tarkibiy qismini tashkil etadi. Tadbirkorlik — bu faqatgina iqtisodiy faoliyat emas, balki jamiyatning ijtimoiy, madaniy va ma’naviy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo’lgan jarayondir. Tadbirkorlar yaratuvchanlik, ilm-ma’rifat va saxovatni rivojlantirishda muhim rol o’ynaydilar. Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatining mohiyati, maqsadini va bozor iqtisodiyotiga o’tish sharoitida amal qiladigan shakllarini o’rganish va foydalanish samaradorlikni oshirishga va jamiyat hayotining farovonligiga, yaratuvchanlik, ilm-ma’rifat va saxovatning rivojlanishiga xizmat qilishi haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Keywords. tadbirkor, tadbirkorlik faoliyati, tavakkalchilik, bozor, korxona, kichik biznes, import, eksport, daromad, mulkdor novatorlik, yaratuvchanlik, islohotchilik.

Kirish. Tadbirkorlik ishbilarmonlik xalqimiz hayotida azaldan muxim o’rin tutib, uning o’ziga xos an’analari asrab-avaylangan, bunday fazilatga ega kishilar qadrlangan. Buni Buyuk bobomiz Amir Temurning “Azmi qat’iy, tadbirkor, xushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir”, degan fikri ham tasdiqlaydi. Har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishi, avvalo, uning ma’naviy qadriyatlari va axloqiy poydevorining mustahkamligiga bog’liq. Ilm-ma’rifat va saxovat ana shunday asosiy qadriyatlar sirasiga kiradi. Hozirgi globallashuv va raqobatbardoshlik davrida ilm-fanni taraqqiy ettirish, yosh avlodni ma’rifatli va vatanparvar etib tarbiyalash, ehtiyojmand qatlamni qo’llab-quvvatlash – jamiyatning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda bu vazifalarni bajarishda faqat davlat idoralariga tayanish yetarli emas. Hususiy sektor va tadbirkorlik faoliyati ham ana shunday ijtimoiy-ma’naviy jarayonlarda faol ishtirok etishi talab etiladi. Ayniqsa, tadbirkorlarning bilim va ma’rifatni keng targ’ib qilish, ta’lim muassasalarini qo’llab-quvvatlash, homiylikni yo’lga qo’yishdagi ishtiroki tobora ortib bormoqda.

Bugun yurtimizda tadbirkor bo’lish ishtiyoqidagi odamlar uchun barcha imkoniyatlar eshigi keng ochilgan. Qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilgan va tadbirkorlik subyektlari uchun zarur huquqiy kafolatlar belgilangan, faqatgina ushbu kafolatlarni bilish va ulardan samarali foydalanish biznes rivojining asosiy omilidir. Har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishi, avvalo, uning ma’naviy qadriyatlari va axloqiy poydevorining mustahkamligiga bog’liq. Ilm-ma’rifat va saxovat ana shunday asosiy qadriyatlar sirasiga kiradi. Hozirgi globallashuv va raqobatbardoshlik davrida ilm-fanni taraqqiy ettirish, yosh avlodni ma’rifatli va vatanparvar etib tarbiyalash, ehtiyojmand qatlamni qo’llab-quvvatlash – jamiyatning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Yurtimizda bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdir.

Tadbirkorlik - bu faqatgina iqtisodiy faoliyat emas, balki jamiyatning ijtimoiy, madaniy va ma’naviy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo’lgan jarayondir. Tadbirkorlar yaratuvchanlik, ilm-ma’rifat va saxovatni rivojlantirishda muhim rol o’ynaydilar.

Tadbirkorlikning asosiy prinsiplaridan biri yaratuvchanlikdir. Yaratuvchan tadbirkorlar yangi

g'oyalar, mahsulotlar va xizmatlarni yaratish orqali bozorni rivojlantiradilar. Ular innovatsion yondashuvlar bilan ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirib, raqobatbardoshlikni oshiradi. Yaratuvchanlik jamiyatda yangi ish o'rinlari yaratish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholining turmush darajasini yaxshilashga yordam beradi.

Tadbirkorlik ilmiy bilim va ma'rifatga asoslangan. Ma'rifatli tadbirkorlar bozorni, iste'molchilarning ehtiyojlarini va texnologik tendensiyalarni yaxshi tushunishadi. Ular ilmiy tadqiqotlarga, ta'limga va kasbiy rivojlanishga investitsiya kiritadilar. Bu esa jamiyatda bilimga asoslangan iqtisodiy modellarni rivojlantirishga olib keladi. Tadbirkorlar orasida ilm-ma'rifatni tarqatish, treninglar va seminarlar tashkil etish orqali ham jamiyatni bilim darajasini oshirishda ishtirok etadilar.

Saxovat tadbirkorlarning ijtimoiy mas'uliyatining bir qismi hisoblanadi. Tadbirkorlar o'z faoliyati orqali faqatgina moliyaviy manfaatlarni ko'zlamay, balki jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishni ham maqsad qilib qo'yadilar. Ular xayriya ishlari, ijtimoiy loyihalar va jamoatchilik faoliyatida qatnashish orqali jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga olib keladilar. Saxovatli tadbirkorlar jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, kambag'allikni kamaytirish va inson huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydilar.

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili: Tadbirkorlik biznesdan farq qilib, tadbirkorlik - bu mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga ijodkorlik, yangilik yaratish ruhi asosida yondashish bilan bog'liq faoliyatdir. Biznes esa unga nisbatan keng tushuncha bo'lib, umuman foyda olish nuqtai-nazaridan yuritiluvchi faoliyatdir.

O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida ta'riflanishicha "Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir"[1].

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 67-moddasi tadbirkorlik faoliyatiga oid quyidagi kafolatlarni belgilaydi:

"Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi. Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli. O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi. Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi"[2].

Ushbu modda tadbirkorlik faoliyatining erkinligini ta'minlash, investitsiyaviy muhitni yaxshilash va raqobatni rivojlantirishga qaratilgan. Davlat tadbirkorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, iqtisodiy erkinlik va raqobat muhitini ta'minlashga mas'uldir.

Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati nazariyasining rivojlanishida uch bosqich ya'ni, mazkur sohani ilmiy jihatdan tadqiq etishdagi alohida bosqichlar shartli ravishda ajratiladi.

Birinchi bosqich dastlabki bozor munosabatlari shakllanish davri - XVIII asrda paydo bo'lib, u tadbirkor tomonidan amalga oshiriladigan tavakkalchilik jarayonlari bilan bog'liq. Tadbirkorlik faoliyatiga oid dastlabki tadqiqotlar shu davrda R. Kantilon, A. Tyurgo, F. Kene, A. Smit va J. B. Sey asarlarida amalga oshirilgan. Fransuz iqtisodchisi R. Kantilon tadbirkorlikning muhim tavsifiy xususiyatlaridan biri sifatida tavakkalchilikni ajratib ko'rsatadi. Uning fikricha, tadbirkor - voqea va hodisalarni oldindan ko'ra bilish xususiyatiga ega bo'lgan, o'z zimmasiga barcha mas'uliyatni olib tavakkal qiluvchi, o'z xatti-harakatlari tufayli daromad olishga umid qiluvchi va har qanday yo'qotishlarga tayyor bo'lgan shaxsdir[3].

R.Kantilondan keyin neoklassik maktab namoyandalari o'z asarlarida o'ziga xos tavakkalchilik asosida raqobatlashib, savdo faoliyati bilan shug'ulanuvchi korxona egasini tadbirkor deb hisoblay boshladilar.

Tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi nazariyalar rivojlanishining ikkinchi bosqichida tadbirkorlikning asosiy xususiyati sifatida innovatsion faoliyat ajratib ko'rsatiladi.

Bu oqimning asoschisi Y. Shumpeter bo'lib, uning fikricha, iqtisodiy o'sishning negizida tadbirkorni ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyasini ishlatishga, qo'llashga bo'lgan intilishi

yotadi va bu intilishning natijasi innovatsiya, yangiliklar hisoblanadi.

Mazkur nazariyalar rivojlanishi uchinchi bosqichining asosiy g'oyasi - tadbirkorming muhim shaxsiy fazilatlarini, jumladan izlanish va tadqiqot hisoblanadi. Bu oqim namoyandalari F.Xayek va L.Mizes tadbirkorlikka yangi iqtisodiy imkoniyatlarni izlab topish va tadqiq qilish deb qaraydi, shu bilan birga faoliyati izlanish tarzida kechadigan har qanday shaxsni bo'lg'usi tadbirkor deb hisoblashadi. K.Makkonnell va S. Bryu tadbirkorlikka asosida uzluksiz shartlar va talablar yotuvchi muhim faoliyat turi sifatida qaraydilar.

Tadbirkorlikning rivojlanishi, o'z navbatida, bir qator sharoitlarning mavjud bo'lishini taqozo etib, ular asosida umuman tovar ishlab chiqarishning umumiy ijtimoiy iqtisodiy shart-sharoitlari yotadi.

K.Makkonnell va S.Bryu tadbirkorlikka asosida uzluksiz shartlar va talablar yotuvchi muhim faoliyat turi sifatida qaraydilar. Birinchidan, tadbirkor tovar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish omillarini birlashtiradi va "katalizator" vazifasini bajaradi. Ikkinchidan, biznesni yuritish jarayonida u qarorlar qabul qilishdek qiyin bir vazifani zimmasiga oladi. Uchinchidan, tadbirkor – tashkilotchi shaxs bo'lib, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilib, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga intiladi. To'rtinchidan, tadbirkor bu tahlikaga boruvchi insondir.

U nafaqat o'z mol-mulki, vaqti, mehnati bilan, balki o'z sheriklari, hissadorlari qo'shgan mablag'lar bilan ham tahlikaga boradi. Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida yuqorida keltirilgan turli xil fikrlar va yondashuvlarni umumlashtirgan holda, qisqa qilib quyidagicha ta'rif berish mumkin: tadbirkorlik faoliyati – shakli va sohasidan qat'iy nazar foyda olish va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir[4].

Usullar. Ushbu maqolada tahliliy, muqobil taqqoslash usullari qo'llanildi. Tadqiqot davomida amaldagi qonunchilik, davlat dasturlari, ommaviy axborot vositalari va tadbirkorlik subyektlarining saytidagi ma'lumotlar o'rganildi. Shuningdek, ayrim tadbirkorlar va faol jamoatchilik vakillarining ijtimoiy loyihalardagi ishtiroki, ilm-ma'rifat va saxovat yo'lidagi faoliyati tahlil qilindi.

Natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda tadbirkorlarning ilm-ma'rifat va saxovat yo'lidagi faoliyati bir necha yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

Maorif va ta'lim sohasiga qo'shilayotgan hissa

- Maktab va bog'chalarni ta'mirlash va jihozlash.
- Kam ta'minlangan talabalar uchun stipendiyalar tashkil etish.
- Kitobxonlikni targ'ib qilish uchun kutubxonalarga kitob sovg'a qilish.
- Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlarni qo'llab-quvvatlash
- Masjid, ziyoratgoh va madaniyat markazlarining qurilishida ishtirok.
- Mahalla markazlarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni moliyalashtirish.
- Yoshlarni axloqiy tarbiyalashga qaratilgan trening va seminarlarni tashkil etish.

Saxovat va xayriya ishlari

- Ramazon oylarida ehtiyojmandlarga oziq-ovqat tarqatish.
- Qishloq va tumanlarda muammoli oilalar uchun uy-joy qurib berish.
- Nogironligi bo'lgan fuqarolarga zarur texnika va jihozlarni hadya qilish.

Ilmiy va texnologik rivojlanishga hissa

- Ilmiy laboratoriyalar va tadqiqot markazlariga homiylik.
- Innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash.
- Yosh ixtirochilarni rag'batlantirish maqsadida tanlovlar o'tkazish.

Muhokama. Tadbirkorlarning faolligi nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki jamiyatda ijtimoiy tenglik, ma'naviy birdamlik va hamjihatlik muhitini yuzaga keltiradi. Ular tomonidan amalga oshirilayotgan ma'rifiy va saxovatli faoliyatlar jamiyatda ijobiy ruhiy muhitni shakllantiradi. Bu esa insonlarni ilmga, mehnatga va saxovatga undaydi.

Bundan tashqari, tadbirkorlik orqali ijtimoiy mas'uliyatni his qilish madaniyati ham shakllanmoqda. Bu davlat va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. Davlat tomonidan berilgan imtiyozlar, grantlar va loyihalar orqali tadbirkorlar rag'batlantirilmoqda, lekin bu jarayonni yanada tizimli ravishda

rivojlantirish talab etiladi.

Xulosa. Jamiyatda ilm-ma'rifat va saxovatni rivojlantirishda tadbirkorlikning o'rni tobora ortib bormoqda. Ular nafaqat iqtisodiy o'sishga hissa qo'shmoqda, balki ma'naviy tiklanish jarayonlarida ham faol ishtirok etmoqda. Hukumat va fuqarolik jamiyati institutlari ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlashi, tadbirkorlarni rag'batlantirishi va e'tirof etishi zarur. Bu orqali barqaror, ma'rifatli va insonparvar jamiyatni barpo etish mumkin bo'ladi.

Tadbirkor xar bir insonni muayyan daromad bilan ta'minlab, uning o'z ehtiyojlarini to'laroq qondirish, turmush darajasini oshirishga imkon yaratadi. Agar jamiyatda tadbirkor insonlar ko'p bo'lsa, unda tinchlik va osoyishtalik, barqarorlikka intilish shunchalik kuchli bo'ladi. Tadbirkorlik yaxshi rivojlangan jamiyatda yaratuvchanlik, ilm-ma'rifat va saxovat yetakchi o'rin tutadi. Shu tufayli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tadbirkorlik faoliyatining ahamiyati haqida shunday degan edi:

“Bizning yana bir muhim vazifamiz-kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo'llab - quvvatlash va rag'batlantirish mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart sharoitlar yaratib berishdan iborat. Nega deganda tadbirkor nafaqat o'zini va oilasini balki xalqni xam, davlatni xam boqadi. Men takror bo'lsa ham aytishdan xech qachon charchamayman ya'ni, xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi. Shunday ekan tadbirkorlik faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish va uni yuritishni takomillashtirish zarur masalalardan biridir”[5].

Tadbirkorlik jamiyatimizda yaratuvchanlik, ilm-ma'rifat va saxovatning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Yaratuvchan tadbirkorlar innovatsiyalar orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydilar, ilm-ma'rifatga asoslangan yondashuvlar bilan bozorni rivojlantiradilar va saxovatli faoliyatlari bilan jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga olib keladilar. Shu sababli, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun davlat va jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlash zarur, chunki bu jamiyatimiz kelajagi uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-may 0 'RQ-328-sonli Qonuni.

[2] O'zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi Konstitutsiyasi 2023- yil 30- aprel (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 01.05.2023 y 03/23/837/0241 son/).

[3] Предпринимательства в конце XX века. М, 1992, 20-6.

[4] Iqtisodiyot nazaryasi. B.Y.Xodiyev, Sh.Sh.Shodmonov; Toshkent-2017.

[5] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Tadbirkorning yutug'i - butun halqimizning yutug'i” videoselektorda so'zlagan nutqi. 20.12.2024 yil.